



## KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

*Turdiqulova N.T.*

*O'zbekiston Milliy univertiteti stajiyor- o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** tajriba, hamkorlik, qobiliyat bilim, ko'nikma, malaka, nazariya, o'zlashtirish, samaradorlik, kompetensiya, faoliyat, kasbiy faoliyat.

**Ключевые слова:** опыт, сотрудничество, способность знания, умения, навыки, теория, овладение, эффективность, компетентность, деятельность, профессиональная деятельность.

**Key words:** xperience, collaboration, ability knowledge, skill, skill, theory, mastery, efficiency, competence, and activity are the key components of the learning process, professional work.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-107 sonli qarori. 2023 yil 3-iyuldagi Ma'lumki, bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyatda mavjud u yoki bu ish yoki xizmat o'rnini egallab turgan har bir mutaxassisning tegishli o'ringa qanchalik munosibligi darajasi uning shu ish yoki xizmat egasiga qo'yiladigan turli-tuman talablarga naqadar javob berishligi bilan o'lchanadi. Keyingi yillarda ish yoki xizmat o'rni bilan shu ish yoki xizmat o'rniga talabgor shaxs o'rtasidagi ana shunday munosiblik darajasini hisoblash asoslarini ishlab chiqish yo'lida jahonning bir qator davlatlarida kasb kompetensiyalarini tadqiq qilish va ana shunday tadqiqotlar natijalarini amalda qo'llashga oid bir qancha konsepsiyalar vujudga keldi. Shunga ko'ra har bir sohada mahorat,uddabironli yoki mahorat kabi tushunchaliar asta sekinlik bilan o'z qiymatini oshirib bormoqda. Shuningdek, mazkur yo'nalishlar bo'yicha mintaqaviy markazlarida va tarmoq markazlarida seminar-treninglar tashkil qilinmoqda quyidagilar: tegishli ta'lim fanlari bo'yicha o'quv dasturlari mazmunini takomillashtirishni, ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashni ta'minlash maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlari bo'yicha mamlakatimizning ilg'or, zamonaviy uskunalar va



texnologiyalar bilan jihozlangan korxonalari; pedagoglarni zamonaviy ilm-fan yutuqlari, tegishli mutaxassisliklar bo'yicha ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari; ilmiy eksperimental, ilmiy tadqiqotlar o'tkazishning samarali metodlari bilan tanishtirish maqsadida ilmiy-tadqiqot muassasalari (Fanlar akademiyasining ilmiy muassasalari, tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, laboratoriyalari, shu kabilari) bilan hamkorlik qilish hamda ularni pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun bazaviy ob'ektlar sifatida foydalanish bo'yicha dasturlar ishlab chiqadi; mintaqaviy va tarmoq markazlari faoliyatini muvofiqlashtiradi; oliy ta'lim muassasalarining rahbar xodimlari malakasini oshirish kurslari tashkil qiladi va o'tkazadi. 12 Mazkur qarorga muvofiq, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish 5 ta xududiy markazlarini tashkil etish, 10 ta tarmoq markazlarini tashkil etish, oliy ta'lim muassasalari huzuridagi malaka oshirish ta'lim muassasalari tashkil etildi.

- pedagog kasbiy kompetensiyasi bo'yicha sertifikat uchun imtihonsinov topshirilishi belgilanishi ko'zda tutilishi kerak.
- sertifikatli o'qituvchilar uchun ilmiy izlanishlar, pedagogik faoliyat yuzasidan imtiyozlar berilishi lozim.
- sinov va baholash imtihonlari uchun kasbiy kompetensiyaga xos to'rt yo'nalish asos qilib olinmog'i darkor: a) mutaxassisligi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlari; b) pedagogik mahorati; g) shaxsiy sifatлари; d) dunyoqarashi. Shunday qilib, pedagog kasbiy kompetensiyasiga ega bo'lish hamda ana shu vakolatni tasdiqlovchi sertifikatni qo'lga kiritish o'qituvchining yanada o'sib borishi, bilimlarining takomillashi shi, o'z ustida ishlashi imkoniyatlarini yaratadi, o'z kasbiga muhabbat va ishonch uyg'otadi. Biz yuqorida qayd etib o'tganimizdek, kompetensiya, ayniqsa, kasbiy kompetensiya shaxsning jamiyatda tutgan o'rnini belgilar ekan, jamiyat ham yuqori malakali kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashdan manfaatdor bo'ladi.

“Kompetensiya” so'zi tarjimada “layoqatli”, “munosib bo'lmoq” kabi ma'nolarni anglatuvchi lotincha “competere” so'zi asosida hosil bo'lgan. “Kompetensiya” deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi. Ushbu uslubiy qo'llanmani yozishdan maqsad – talabalarni pedagogik kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va ta'limdagi innovatsion jarayonlar tizimida o'qitish va tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirish dan iborat. Vazifalari esa talabalarga pedagogik kompetentlikka doir manbalardan foydalana olishga o'rgatish va ularda pedagogik kompetentlik haqidagi tasavvurlarni hosil qilish; bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kishilik jamiyati oldida turgan eng muhim muammolardan biri

- ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishga oid istiqbolli yo‘nalishi bo‘lgan pedagogik kompetentlik yuzasidan nazariy bilimlar bilan tanishtirish;
- pedagogik kompetentlikka qo‘yilayotgan zamonaviy talablar bilan qurollantirish;
- ta’lim-tarbiya jarayonini bola ruhiyati, uning neyropsixologik, neyropedagogik imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish uchun zarur bo‘lgan bilim ko‘nikmalarni egallashlarini ta’minlash;
- pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikni hamda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.

Pedagogik kompetentlik bir qator ya’ni pedagogika nazariyasi va tarixi, pedagogik konfliktologiya, neyropedagogika, pedagogik imidjalogiya, innovasion pedagogik texnologiyalar, yosh davrlar psixologiyasi, ijtimoiy pedagogika, pedagogik aksiologiya, pedagogik psixologiya fanlari bilan o‘zaro aloqada shakllanadi. Murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta’lim-tarbiya tizimini yangicha ko‘rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo‘llash orqali ta’lim samaradorligiga erishish davr talabidir.

bevosita bog‘liqdir. Zamonaviy o‘qituvchi o‘zining bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda samarali qo‘llay olishi

- kasbiy kompetentligining eng asosiy komponentidir. Jumladan,
  - dunyo va mamlakatda ta’lim taraqqiyoti bosqichlarini bilishi, xalq ta’limi tizimida o‘quv-tarbiya jarayoni mazmunini ta’minlashga, uzviylik va uzluksizligiga amal qilish;
  - kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va pedagogik faoliyatida qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
  - talabalarning ruhiy, jismoniy rivojlanishi va yosh hususiyatlari qonuniyatlarini bilishi, ta’lim-tarbiyada pedagogik-psixologik yondashuvga asoslanish;
  - o‘quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda darsning aniq bosqichi uchun samarali zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda metodlarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
  - o‘quv-tarbiya va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida bolalar hayoti va sog‘ligi, texnik hamda axborot havfsizligini ta’minlashga tayyor bo‘lish;
  - dars jarayonida mediaresurslar va elektron tarmoq imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda mediahavfsizlik me‘yorlariga amal qilish;
- 8 O‘qituvchilar umumta’lim fanlarini o‘qitish darsining mazmuniga



mediamadaniyat va mediavaxfsizlik tushunchalarini singdirib borishi, ularga axborot texnologiyalarining cheksiz ijobiy imkoniyatlari, afzalliklari bilan bir qatorda salbiy ta'siri va oqibatlaridan o'zini himoyalash yo'llarini ham o'rgatish lozim. Bunda talabalarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini quyidagilarni inobatga olgan holda rivojlantirish maqsadga muvofiqdir:

- talabalarda axborot texnologiyalarining hayot va jamiyatdagi roli, imkoniyatlari va qo'llash doirasi, shuningdek, uning salbiy oqibatlari va ulardan himoyalash haqidagi tushunchalarni shakllantirish;
- ta'lim olish va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida elektron resurslar, o'quv dasturlari va boshqa o'quv-metodik mahsulotlarning afzalliklarini anglash va qo'llashni o'rgatish;
- masofadan ma'lumot almashish lokal va global tarmoqda ma'lumot qidirishni va bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-hatardan saqlanish hamda mediamadaniyat qoidalariga rioya qilish. Yoshlarimizda yangi zamonga mos hayotiy mo'ljallarini belgilashda chalg'imaslik, axborot makonida o'zlariga kerakli manzilni aql-idrok, halollik va mehnatsevarlik bilan topish, Vatan taraqqiyoti va yurt faravonligiga o'z hissasini qo'shish kabi fazilatlarni tarbiyalash biz pedagoglarning burchidir.

Pedagogik kompetetlikning nazariy-metodologik asoslari ko'rib chiqadigan bo'lsak Keyingi o'n yilliklar mobaynida bir qator Yevropa, AQSh, Rossiya va bizning mamlakatimizda, oliy ta'lim tizimi tubdan isloh qilina boshlandi. Bunda asosiy e'tibor, talabalarda egallayotgan mutaxassisligi bo'yicha kompetensiya shakllanishi va takomillashuviga qaratilmoqda. Bugungi kunlarda jamiyat uchun butunlay yangi qiyofadagi mutaxassis talab qilinayapti. U faol ijodiy fikrlovchi, izlanuvchan, ilmiy axborotlarni mustaqil ravishda izlab topuvchi va ularni o'z amaliy faoliyatida qo'llovchi mutaxassis bo'lib yetishishi lozim. Olimlarning fikriga ko'ra, oliy ta'limni isloh qilish, yangilash, takomillashtirishda zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashning asosiy yo'llaridan biri kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv hisoblanadi. Oliy ta'limda o'qish va tarbiyaning bunday uslubini joriy qilish o'z-o'zidan an'anaviy qarashlarni tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Bilim, ko'nikma va tajribalar bu borada endi kamlik qilishi ko'zga tashlanmoqda. Hozirgi zamon pedagogika fani va bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga nazar tashlasak, turli soha va mutaxassislik larga, fan va uslublarga, o'qitish usullari, texnologiyalariga juda ko'p e'tibor qaratilganligini sezamiz. Ammo ana shu pedagogik usullarni tushunish, ularni amaliy faoliyatda qo'llash masalasi eng dolzarb muammolardan biriga aylanganligini ta'kidlash mumkin. Pedagogika fani ham boshqa gumanitar va tabiiy fanlar qatori o'z o'rgamchak ipiga o'ralashib qolgandek tuyuladi. Muammo bu sohadagi pedagogik nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etishda yaqqol



ko'zga tashalanadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, o'qituvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish mahoratining yetishmasligi sezilmoqda. Demak, ko'plab o'qituvchi larni, pedagoglarni eskirib qolgan nazariy bilimlar yuki bosib qolyapti. Ularda zamonga xos tub o'zgarishlarga mos kelish, munosib bo'lish kabi sifatlar yetishmaydi. Huddi shu sifat kompetensiya – kompetensiya egasi bo'lish, kompetent pedagog nomini olish masalasi hisoblanadi.

Yevropa mamlakatlari o'qitish tizimidan ko'chirib olingan kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv Rossiya pedagog olimlarini chuqur izlanishlar olib borishga chorlamoqda. Ammo pedagogik o'qitish usul va metodlari texnologik yo'llarini kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv atamasiga ag'darib olish bilan masala yechilmasligi yanada ayon bo'lib bormoqda. Kompetensiya masalasining dolzarbligi shundaki, eng avvalo, o'qituvchi va pedagogning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish muammosini yechishni talab qiladi. Kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuvning dolzarbligini Vatanimiz ta'lim-tarbiya tizimida ham sezish mumkin. Kompetensiya eng avvalo, davlat va jamiyat tomonidan beriladigan ishonch, vakolat 10 ekanligini ta'kidlash zarur. Aniqrog'i, mamlakatimiz manfaati uchun xizmat qilish kompetensiyasi – vakolati zarurligini ko'ramiz. Pedagogik kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarishni uzviy birlashtiruvchi tizim ekanligini ta'kidlaymiz. Milliy dasturning maqsad va vazifalari ularning asoslanganligi, muhimligi va muammolarni hal qilish yo'llari ilmiy asosga tayanadi. "Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish aspektlari" haqida fikr yuritir ekanmiz, mavzu uchun AQSh, Fransiya, Yevropa mamlakatlari, Rossiya pedagogikasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga e'tiborimizni qaratish bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi ilmiy va amaliy izlanishlarni o'rganishga, ularni tahlil qilishga harakat qilamiz. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi mutaxassislar tayyorlashda mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan holda islohotlar sari yuz tutmoqda. Hozirgi paytda oliy pedagogik maktabning asosiy vazifasi, biz yuqorida tilga olib o'tgandek raqobatbaodosh, kompetentli o'qituvchilar tayyorlashdan iboratdir. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan oliy ta'lim maktablarida ishlay oladigan, o'z kasbiy vazifalarini mustaqil va ijodiy yecha oladigan o'qituvchilarga bizning mamlakatimizda ham talab kuchayib bormoqda. Kompetentlikning mezonlari qanday, o'qituvchi kasbiy tayrgarligi qanday bo'lishi lozim? degan savollarga javob qidiramiz. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik kompetetlikka oid ilmiy yondoshuvlar Pedagogik kasbiy kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv masalasida butun dunyo olim va mutaxassislari o'rtasida ilmiy munozara va bahslar davom etmoqda.

AQSh va Yevropa mamlakatlari pedagogik olimlariga nisbatan Rossiya olimlari kasbiy kompetensiya masalalariga mukkasidan ketganligi yaqqol



ko‘rinadi. V.Slastenin, I.Isaev va boshqalar tomonidan yozilgan “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmasining Pedagogning kasbiy kompetensiyasi”ga bag‘ishlanib, bu tushuncha va mahorati haqida fikrlar beradi. Mualliflarning ta’kidlashicha, pedagogika kompetensiya tizimi, amaliy va nazariy tayyorgarligi, pedagogning kasbiy kompetensiyasi kasbi boshqaruvchi va shakllantiruvchi xususiyatga ega. Shaxs shakllanishini boshqarish kompetentlikni talab qiladi. Bu o‘zida o‘qituvchining nazariy va amaliy tayyorgarligini jamlagan holda uning kasbiy mahoratini namoyish qiladi. U yoki bu kasb yo‘nalishi bo‘yicha o‘qituvchining malakaviy tasnifi pedagog kompetensiyasi modeli me‘yorlari bilan o‘lchanadi, deb yozadilar. V.A.Bolotov va V.V.Serikovlarning fikriga ko‘ra, kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv talabning bilimdonligini emas, balki muammolarni hal qila olish qobiliyatini ko‘rsatadi va eng birinchi darajadagi zarur qobiliyat deb baholaydi. Ye.V.Bondorevskaya va S.V.Kulnevichning ilmiy ishlarida talabalar yig‘adigan kompetensiya unsurlari faqat asosiy maqsadga, pedagogik faoliyat olib borish uchun yo‘naltirilishi yoki zarur bo‘lishi lozim deb hisoblaydi. V.S.Yelegina va S.M.Poxlebaev tomonidan Rossiyaning ilmiy maqolasida kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim sharoitida talaba o‘z faoliyatidan ijodiy natija oladi va shu bilan birgalikda, muvaffaqiyat qozonishning usullari, yo‘llari, metodlari, yondoshuvlari va uslublarini o‘zlashtirib oladi. Aynan talaba yaratilgan ijodiy natija talaba bilan o‘qituvchining hamkorlikdagi ijodiy natijasi hisoblanadi. Talabning o‘zlashtirishiga baho berishdan maqsad, berilgan ta’limning qanchalar samarador bo‘lganligi darajasini aniqlash, bu birinchidan, maktabda olgan nazariy bilimlari darajasini bilish, ikkinchidan undagi kompetensiya shakllanishi, amaliyot paytidagi muvaffaqiyatli faoliyati yanada tezlashadi. Chuqur islohotlarni, modernizatsiyalashni talab qiladigan zamonaviy ta’lim o‘z-o‘zidan kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv masalasini ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Bu albatta, kasb jihatdan kompetentligi bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlashni talab qiladi. Ta’limning asosiy maqsadida talabada ijtimoiy zarur sifatlarni va kompetensiyani, shaxs sifatida o‘zo‘zini anglash, o‘z bilimlarini doimiy oshirib borish, o‘z-o‘zini boshqarib borish va faollashib borishni shakllantiradi. Albatta, bu mavzuning o‘rganilganligi darajasini ko‘plab xorijiy va mamlakatimizdagi oliy va mutaxassislar tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda ko‘rishimiz mumkin. Agar biz AQSh oliy pedagogik ta’limi tizimi faoliyatiga nazar tashlamoqchi bo‘lsak, B.D.Vulfson, T.N.Kurilova, Z.A.Malkova va boshqalarning ilmiy ishlarini, agar AQSh pedagogik ta’limining maqsadlari haqida bilmqochi bo‘lsak, N.D.Nikandorova, V.Ya.Pilipovskiy, bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik ta’limi bo‘yicha G.G.Agapova, O.O.Borovikova, V.S.Budenko va boshqalarning ishlarini, AQSh o‘qituvchilarining malaka oshirish tizimi haqida esa V.B.Gargay, N.I.Kustinova va boshqalarning ishlariga nazar tashlasak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yuqorida



nomlari tilga olingan olimlarning ilmiy ishlaridan Rossiya va AQSh ta'lim tizimi bir-birini to'ldirib boyitganligini tasavvur qilishimiz mumkin. AQSh, Kanada, Avstraliya va bir qator Yevropa mamlakatlarida pedagogik kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimi yaratilganligi ko'zga tashlanadi va ular bu muammoni ma'lum bir tizimga solib keng o'rganmoqdalar. AQShda Kompetensiyaviy yondoshuvning falsafiy asoslari masalasida, ularning global maqsad va vazifalari, tashkiliy tizimi, mohiyati, ta'lim standartlari, sifati, ta'limning sifatini nazorat qilish, oliy Bizning mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish zamonaviy o'qituvchiga yangi talablarni qo'yadi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak, degan savol birinchi darajaga chiqadi. Kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv masalasiga xorijiy mamlakatlarda bo'lgani kabi ko'r-ko'rona yondashilmaydi. Kasbiy kompetensiya o'rniga ijodiy jamoalar va pedagogik olimlar tomonidan kasbiy mahorat tushunchasi berilib, asosiy ilmiy ishlarda ma'lum bir soha va fanlarni o'qitish borasida metod va uslublarni ishlab chiqishga qaratilgan, lekin aynan kompetenli o'qituvchi masalasiga yondoshuv endigina amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimining malaka oshirish bo'g'inida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, uni amalga oshirish hozirgi davr istiqbol talablaridan amaliyotchi o'qituvchilar yetarli hamda samarali foydalana olmayptilar. Buning asosiy sabablari malaka oshirish muammolari yetarli darajada tadqiq etilmaganligida, faqat sanoqli olimlargina kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuvga e'tibor qaratganligidadir.

Respublikamizda malaka oshirish muammolari va kasbiy kompetensiya masalalarida B.Adizov, A.A.Ahmadov, A.X.Aminov, T.L.Xurvalieva, N.A.Muslimov, Sh.Saidqulov kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Bu tadqiqotlarda asosan malaka oshirish tizimini takomillashtirishning tashkiliy pedagogik masalalari va pedagogik tashxis masalalari o'rganilgan. Abdulla Avloniy nomidagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash instituti olimlari biz yuqorida tilga olgan dunyoviy tajribalardan foydalanilgan holda kompetensiya tushunchasi va uning turlari haqida fikr yuritir ekan, T.L.Xurvalieva kasbiy kompetensiyani turlarga bo'lib o'rganishni taklif qiladi. Uni kasbiy kompetensiya, kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari, shaxsiy kompetensiya, umummadaniy kompetensiya va maxsus kompetensiya turlariga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladi. Ko'proq rus pedagog olimlari materiallaridan, ayniqsa, A.V.Xutorskiy ta'limda o'qituvchining yetti kompetensiyasini tasniflaganligini tilga olib, ularni to'g'ridan-to'g'ri o'zbek pedagogika tizimiga tatbiq qilishga harakat qiladi.

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi tizimi – pedagogik mahorat orqali namoyon bo'ladi. Kasbiy tayyorgarlik modelini shakllantirishda umumiylikdan xususiy mahorat sari boriladi. Umumiy mahorat – bu pedagogik fikr yuritish va faoliyat yurgazish hisoblanadi, fakt va hodisalarni nazariy jihatdan tahlil qilishga



undaydi. Pedagog uchun zarur bo‘lgan mahoratning bu ikki unsurini birlashtirish asosida konkretlikdan obstraklikka, ya’ni aniqlikdan mavhumlik sari o‘tiladi. Ular sezgi, tafakkur va nazariy asoslarda yuz beradi. Tahlil etishni nazariy darajaga olib chiqish mahorati bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni pedagogik mahoratga o‘rgatishning yoki pedagogik mahoratni yanada takomillashtirish ning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Pedagogik masalalarning umumlashgan ligiga qaramay, pirovard natija, yechim “fikrlash, faoliyat yurgazish, fikrlash” mana shu uchlikka kelib taqaladi hamda pedagogik faoliyat unsurlari va unga mos bo‘lgan axborot bilan uyg‘unlashib ketadi.

Natijada o‘qituvchining kasbiy kompetentligi modeli uning nazariy va amaliy tayyorgarligi sifatida namoyon bo‘ladi.

1. Pedagogik kompetensiya o‘qituvchi kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan bilim, mahorat, ko‘nikma;

2. Muammolarni muvaffaqiyatli yechish qobiliyati, oliy darajadagi kasbiy mahorat.

3. Kasbiy faoliyati davomida pedagog tomonidan qo‘llanilgan texnologiyalar, metodlar va usullar yig‘indisi.

4. Turli tajribalar yig‘indisi, pedagogik faoliyatdagi katta tajriba.

Pedagogik kompetensiya pedagogika sohasidagi bilim, mahorat, ko‘nikma, ma’lumotlilik va obro‘-e’tibor. Yana bir qator olimlar kompetensiyaning to‘rt turini ajratib ko‘rsatadilar:

1. Funksional, ya’ni kasbiy bilim va mahoratini amalda ro‘yobga chiqara olish demakdir.

2. Intellektual, ya’ni tahliliy fikr yuritish va o‘z vazifalarini bajarish uchun kompeleks yondoshish qobiliyatidir.

3. Vaziyatga xoslik. Vaziyatga qarab harakat qilish qobiliyati.

4. Ijtimoiy, kommunikativ va integrativ qobiliyatlar.

Har qanday jamoada til topa olish qobiliyati. Pedagog olimi T.L.Xurvalieva kasbiy kompetensiya tizimini besh guruhga ajratadi. Kasbiy kompetensiya: - pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo‘lish; - o‘z ustida ishlash; - ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o‘rnata olish; - talabalar ehtiyojini anglay olishi; - talabalarda motivatsiyani shakllantirish; - ta’lim muhitiga yangilik kiritishi; - o‘z fanini mukammal bilishi; - ingliz tilini yaxshi bilishi. Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari:

1. O‘z-o‘zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash.

2. O‘zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash.

3. O‘zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish

Ushbu qarashlarga ko‘ra xulosa qilib aytadigan bo‘lsak kompetensiya - o‘qituvchining o‘quv va boshqa faoliyat laridagi o‘z-o‘zini anglash mexanizmini



ta'minlaydi. Umumadaniy milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf-odatlariga hurmat; ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lish. Ilm- fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta'sirini anglay olishi va talabalarga tushuntira olishi. O'quv va bilish jarayoni - o'qituvchining mustaqil bilish faoliyati. Mantiqiy fikrlashi. O'quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko'nikmasini tahlil qila olishi. Ma'lumotga ega bo'lish - pedagogik faoliyati, o'z faniga doir ma'lumotlarni egallash ko'nikmasi. Muloqotchanlik - til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo'lishi, jamoada o'ziga xos o'rinda turishi. Ijtimoiy - foydali mehnat, oilaviy munosabatlar va mas'uliyat, jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lish. O'z ustida ishlashi - jismoniy, ma'naviy, intellektual jihatdan o'zo'zini rivojlantirib borishi. Hissiyotini boshqarish. Kvalifikatsiya va kompetensiyaning o'zaro munosabati: Kvalifikatsiya - potensial faoliyatda bilim va ko'nikmaning namoyon bo'lishi. Kompetensiya - bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda ko'rinishi. Didaktik kompetensiya:

- o'qitish muhitini yaratish; - mavzu mazmunini yoritishni rejalashtirish;
- o'quv jarayonini boshqarish; - talabalarga motivatsiya berish va yordam ko'rsatish;
- talabalar bilimini anglash va ularni rivojlantirish; - talabalarning yutuqlari va rivojlanishlarini baholash;
- fanlar bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lish. Ta'lim sifatini belgilovchi omillardan biri bu o'qituvchi ning o'z fani bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lishidir. U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo'ladi: - ilmiy bilim;
- turli xil faoliyatni bajara olishi (namuna, misol keltira olishi); - muammoli vaziyatlarni samarali yechimini topishda ijodiy faoliyat asosida yondashish;
- jamiyat va insonlarga, tabiatga ijobiy emotsional munosabat da bo'lish tajribasi. Professional pedagog o'z kasbining yetuk ustasi – ustoz pedagog, albatta uning pedagogik mahorati bo'ladi. U barcha vaziyatlarda ham o'z faoliyatini muvaffaqiyatli olib boradi. U albatta, zamonaviy metod va usullarni muntazam o'rganib boradi, pedagogik kasbiy kompetensiyaga ega bo'ladi. Chunki shu hislatlarga ega bo'lgan o'qituvchi o'zi bilgan, bilmagan holda haqiqiy kompetensiya egasi bo'ladi. Mehnat qilish madaniyatigagina emas, balki yuksak umuminsoniy madaniyatlar: odobaxloq, qadriyatlar va obro'-e'tibor egasi bo'lishi o'z-o'zidan ayon. Shu bois ham, talabalarning kasbiy kompetensiya egasi bo'lib yetishishlari uchun Milliy dasturimizda uch bosqichli tizim bo'yicha ta'lim-tarbiya beriladi. Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasi mezonlari haqida olimlarimiz olib borayotgan



izlanishlar hali yetarli emasligi ko'zga tashlanib turibdi. O'qituvchi kasbiy kompetensiyasi masalasida O'qituvchining kompetensiya modelini keltiramiz: Pedagog faoliyatining maqsadi va mazmuni:

- talabalarning o'z-o'zlari bilan erkin bo'lishlari uchun erkinlik berish; - har bir talabaning o'zini rivojlantirishiga erishish; - talabalarning individual shaxsiy xususiyatlarini rivojla nishiga yordamlashish; - talabalarning qobiliyati, qiziqishi va imkoniyatlariga tashkil etilgan ta'lim jarayonining mos kelishi; - talabalarning qiziqishi va layoqatlarini hisobga olgan holda, foydali narsalarni o'zlashtirishlariga undash;
- talabalar ma'naviy qadriyatlarni o'rganishlari asosida axloqiy va insoniy sifatlar rivojlanadi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-107 sonli qarori. 2023 yil 3-iyuldagi.
2. Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: От идеи к образовательной программ-мий. Педагогика. 2003. №
3. Andreyev A. Использование аутентичных материалов для изучения ономапии на начальном этапе обучения корейскому языку студентов вуза корееведение в россии: направление и развитие. – 2022. – т. 3. – №. 4. – с. 61-66.
4. Zimnyaya I.A. Педагогическая психология: учебник для студентов высших учебных заведе-ний, обучающихся по педагогическим и психологическим направлениям и специальностям. Изд.е 2-е. Москва: Логос, 2009г. С.382.
5. Yosh mutaxassislarda kompetintlikni shakillantirishning ahamiyatligi va mohiyatI International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 8, Issue 05, May (2024)
6. DOI:10.24412/2181-1385-2023-2-8-18 Kitobxinlik buyuk kelajak poydavori. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari. 698-703betlar
7. Tulishov,G.R. (2023). Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligining tuzilmasi, mazmuni va o'ziga xosligi tushunchalar tizimi. Innovative development in educational activities, 2(24), 147–158. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10433311>

#### РЕЗЮМЕ

Ta'lim jarayoniga kirib kelayotgan xorijiy tajribalar va o'zlashtirilayotgan yangiliklarni avvalambor pedagoglar uchun ustavor jihatlarini tahlil qilish va yosh mutaxassislar va o'quvchilar jamoasiga yetkazi bera olish va bir nechta ta'lim tizimiga oid bilim va ko'nikmalarni oshirib haqida mulohaza yuritiladi.

#### РЕЗЮМЕ

Анализируя поступающий в образовательный процесс зарубежный опыт и осваиваемые нов-шества, прежде всего приоритетные для педагогов аспекты и умение доводить их до молодых специалистов и школьного сообщества, а также совершенствовать знания и навыки, связанные с несколькими системами образования.

#### SUMMARY

Analyzing the foreign experience entering the educational process and the innovations being mastered, first of all, the priority aspects for teachers and the ability to convey them to young professionals and the school community, as well as improve knowledge and skills related to several education systems.